



UDK: 9-91(796.5)

**Marufdjan USMANOV,**  
Geografiya fanlari doktori, dotsent  
Samarqand davlat universiteti  
E-mail: m-usmonov@samdu.uz, ORCID-0000-0002-7009-8053

**Nargiza SUYAROVA,**  
Tayanch doktorant  
Samarqand davlat universiteti  
E-mail: nargiza\_suyarova@samdu.uz, ORCID-0009000291376013

Qarshi DU o'qituvchisi, PhD X.Jumayev taqrizi asosida

### THE ROLE OF NATURAL CONDITIONS IN THE DEVELOPMENT OF DESERT TOURISM IN THE KASHKADARYA REGION

Annotation

The article discusses in detail the natural geographical features of the desert territory of Kashkadarya region, the arid climate features, notable tourist attractions in the desert and their economic efficiency indicators and conditions. The natural geographical, climatic, socio-economic resources of the region and their level of convenience for tourism and the level of convenience for the economic sector are presented.

**Keywords:** desert tourism, territory, tourism, tourist potential, ecotourism, infrastructure, recreation, services.

### РОЛЬ ПРИРОДНЫХ УСЛОВИЙ В РАЗВИТИИ ПУСТЫННОГО ТУРИЗМА В КАШКАДАРЬСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В статье подробно рассматриваются природно-географические особенности пустынной территории Кашкадарьинской области, особенности засушливого климата, примечательные туристические достопримечательности пустыни, а также показатели их экономической эффективности и условия их использования. Представлены природно-географические, климатические, социально-экономические ресурсы региона, а также уровень их пригодности для туризма и экономического сектора.

**Ключевые слова:** пустынный туризм, территория, туризм, туристический потенциал, экотуризм, инфраструктура, отдых, услуги.

### QASHQADARYO VILOYATI HUDUDIDA CHO'L TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA TABIIY SHAROITNING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada Qashqadaryo viloyati cho'l hududining tabiiy geografik jihatlari, arid iqlim xususiyatlari, cho'ldagi e'tiborga molik bo'lgan turistik joylar va ularni iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari hamda shart sharoitlari haqida batafsil so'z boradi. Viloyatning tabiiy geografik, iqlimiy, ijtimoiy-iqtisodiy resurslari va ularning turizm uchun qulaylik darajasi bo'yicha hamda iqtisodiy sektor uchun qulaylik darajasi keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** cho'l turizmi, hudud, turizm, turistik salohiyat, ekoturizm, infratuzilma, rekreatsiya, xizmatlar.

**Kirish.** O'zbekistonda cho'l turizmining uchun juda katta imkoniyatlar mavjud. Mamlakatimizda turizm tarmog'ining ulushi ortib, iqtisodiy samaradorlikni ifodalovchi tizim shakllanib ulgurdi [7:]. Bu ayniqsa tabiiy geografik hududlar kesimida o'rganish, ayniqsa nisbatan yurtimizda "yosh" cho'l turizmining rivojlantirilishida avvalo aniq tizimli ta'rifi ishlab chiqish kerak. Bu ko'proq nazariy asoslar orqali tubdan yangilash, amaliy harakatlarda esa iqtisodiy sektordagi hissasi bilan namoyon eta oladi. Respublika bo'yicha yillik YaIMda turizm va unga yondosh sohalar indikator ko'rsatkichlari, mintaqada qaysi va qanday resurs imkoniyatlarini ishlab chiqarish bilan iqtisodiy ulushi ortishini ko'rsatib, ayni vaqtda Qashqadaryo viloyati cho'l hududi cho'l turizmini rivojlantirishda qulay obyektlardan biri hisoblanadi. Cho'l turizmi boshqa turizm turlariga nisbatan kamxarajat, tabiiy cho'l landshaftlarining mavjudligi, atrof muhitni muhofaza qilishda ta'siri oz turlardan biri va yana boshqa ko'pgina qulayliklarga ega. Jahon bozorida turizmdan olinadigan daromad shunchaki kelmaydi, balki xizmat ko'rsatish (sifatli), infratuzilma rivojlanganligi, tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni yuqoriligi kabi indekslarda farq qiladi. Shu o'rinda 2024-yil turizmining yillik rivojlanishi dunyo bo'yicha o'rtacha 1,3 %, o'sgan bo'lsa O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 3,9 % ga etdi [8:].

Qashqadaryo viloyati hududining turistik rekreatsion resurslari nihoyatda katta imkoniyati mavjud bo'lib, tabiiy geografik sharoiti bunga misol bo'ladi. Chunki hududning turizmning juda ko'p tarmoqlarini rivojlantirish va hududiy tashkil etish uchun tabiiy zaxiraviy rentabilligi yuqori. Qarshi cho'lining bioiqlim shart – sharoitlari yil davomida sport, sog'lomlashtirish, ovchilik va boshqa mavsumiy funksional turizm foydalanish imkoniyatini yaratadi. Odatda iqtisodiy ma'lumotlardan ma'lumki – aholi bandligini ta'minlash, tovar va xizmatlar bozorini yurgizish, o'zaro aloqalar fonida foydali o'sish kabi omillar turizm tarmog'iga taalluqlidir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Turizm va aynan cho'l turizmi hamda aloqador izlanishlar bilan juda ko'p tadqiqotchilar shug'ullanishgan. Qashqadaryo viloyati hududining tabiiy geografik imkoniyatlarini aniqlashda va turizm tarmoqlari bo'yicha tadqiqotlarga geograflardan L.N.Babushkin, I.Xasanov, O.Y.Poslavskaya, D.I.Shashko, M.G.Popov, X.J.Jo'raqulov,

A.M.Rasulov, I.Usmonov, S.Sh.Mirzayev, A.Soliyev, S.I.Abdullayev, M.R.Usmonov, X.Jumayev va boshqa ko'pgina olimlar o'z hissasini atroflicha qo'shishgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** statistik, konstruktiv, kuzatish, tahliliy kabi metodlardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Jahonning turli burchaklarida cho'l turizmining turli darajada rivojlanganligini kuzatamiz. Global cho'l turizmi bozori prognoziga ko'ra, jahonda cho'l turizmi bozori 2025-2033-yillarda 5,81% o'sishini qayd etmoqda [9:]. Cho'l turizmining eng rivojlangan hududlari sifatida arid iqlim xususiyatiga ega bo'lgan: Avstraliya, Eron, Xitoy, Aqsh, Saudiya Arabistoni, Misr, Jazoir, Marokash singari davlatlar kiradi. Mazkur davlatlarning qurg'oqchil, quruq cho'llari turfa xil ajoyib landshaftlari bilan mashhur bo'lib, juda katta daromad keltiradi. Ushbu davlatlarda turistlarga xizmat ko'rsatishda ertaknamo saviyaga, natijaga erishilgan. Davlatga kelgan sayyohga taklif etilayotgan xizmatlarning sifati va innovatsion usullar bilan uyg'unlashganligi, u oladigan estetik zavq orqali mablag' sarflashi hamda tushadigan tushumning nihoyatda "toza"ligi bilan juda hamiyatlidir. Ayniqsa 28.6 ming km<sup>2</sup> maydonga ega Qashqadaryo viloyatining cho'l tekislik qismi S.I.Abdullayev va I.Usmonov (1981) ma'lumotiga ko'ra 54.8 % ni tashkil etishi, tarmoqning rivojlantirish uchun imkoniyat ekanligini anglatib, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion yondashuvlarni, raqobatbardosh muhit yaratishni bildiradi. Qashqadaryo ekoturistik rayoni cho'l-dashtog'oldi-tog' kabi mintaqalarga bo'linadi. Qadimdan Buyuk ipak yo'li ustida joylashgan va qadimiy shaharlarni paydo bo'lishiga turtki bergan hudud hisoblanadi. Iqtisodchi olimlardan A.M.Babashkina davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini, ta'sir etish vositalarini cheklash, asosiy vazifasi iqtisodiy subyektlarning faoliyatini qo'llab quvvatlovchi institutlarni rivojlantirish, xususiy sektor samaradorligini oshirishda zarur sharoitni yaratish lozimligini uqtiradi [3]. Bundan ko'rinib turibdiki turizm faoliyatini yo'lga qo'yishda xususiy sektor ulushi ortib, turizm infratuzilmasi hudud iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Cho'l turizmini Qarshi cho'lida rivojlantirishda "ishlab chiqarishning umumiy shartlari" shakllantiriladi va tabiiy resurslar iqtisodiy baholanadi. Baholash ishlarida infratuzilmaviy qanchalik qulaylikka egaligi ko'rib chiqiladi va integratsiyalashgan marketing siyosati yuritiladi. Ba'zi tadqiqotlarda iqtisodiy samaradorlikdan tashqari, ijtimoiy samaradorlikka ham urg'u beriladi. Masalan jahon turizm tashkilotining (WTTC) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda aholi qatlami orasida ish bilan ta'minlangan yoshlar ulushi 2024-yilda sayohat va turizm sohasida 39 mingdan ortiqni tashkil etib, bevosita qo'llab-quvvatlanadigan yoshlar bandligining umumiy 2,45% demakdir [8].

Qashqadaryo viloyati hududi O'zbekistonning janubiy qismida, Yevrosiyo materigi ichkarisida, g'arbiy va janubiy tomonlarining ochiq ya'ni tekisliklardan – shimol va sharqda esa baland tog'lar (Zarafshon, Hisor va uning tarmoqlari) bilan o'ralganligi iqlim hamda tabiiy geografik sharoitni o'ziga xos tarzda shakllantirgan. Viloyat hududining qariyb 54.8 % qismi tekislik hisoblanib, umumiy Qarshi cho'li deyiladi (S.I.Abdullayev, I.Usmonov 1981). Maydoni 13,6 ming km ni tashkil etadi. Qarshi cho'li (*ba'zi adabiyotlarda Nishon cho'li, Muborak cho'li, G'uzor tekisligi kabi bo'linishlar uchraydi.*) Qizilqum va Sandiqliqum cho'llari bilan tutashadi [1]. Viloyatning tekislik qismini Qarshi cho'li sifatida talqin etilishi ham iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy jihatdan, ham geografik jihatdan to'g'riroq bo'ladi. Viloyatning umumiy chegaralari 795 km bo'lsa, 390 km tekisliklardan o'tadi. Shimolda Jom va Qarnob cho'llari, sharqda Hisor tizma tog'lari tarmoqlari, janubda Nishon tumani Sarsondara, Aloviddintog', Sandiqliqum cho'li, g'arbda esa Dengizko'l, Jarqoq, Setalantepa qirlari orqali Buxoro hamda Navoiy viloyatlariga chegaradosh. Cho'l turizmini rivojlantirish uchun cho'ning landshaft komponentlari: geologik, geomorfologik, relyef, iqlim, tuproq, o'simlik va hayvonot olamini baholash parametrlari aniqlanadi. Hudud ishlab chiqarish shakliga ta'tgandan so'ng ko'taradigan "yuk" darajasi atrof muhitga bezarar bo'lishi kerak. Tadqiqotchi olim O.Y.Poslavskaya (1959 y) Qashqadaryo havzasini geologik - geomorfologik jihatdan uchta asosiy geomorfologik mintaqaga ajratadi: tog' mintaqasi, tog' oldi va past tog'lar mintaqasi hamda tekislik mintaqasi. Aynan shu tekislik Qarshi cho'li: Qizilqum cho'lining janubi – sharqiy chekkasi hisoblanadi [2:]. Cho'l mintaqasida dengiz sathidan balandlik 280 – 500 m gacha o'zgarib boradi va adir mintaqasi balandliklarida ham cho'l landshaftlarini eslatib, yalang ko'rinishdagi manzaraga ega. X.J.Jo'raqulovning (2007) ta'kidlashicha: pleotsenning oxiri va to'rtlamchi davrning boshida hozirgi landshaft mintaqalarning qiyofasi shakllana boshlaydi va bu mintaqalar keyinroq ayrim o'zgarishlar bilan hozirgi ko'rinishga keladi. Qarshi cho'lida hozirgi relyefning shakllanishiga deflyatsiya katta ta'sir ko'rsatadi. Bu esa turizmni rivojlantirishda mavjud imkoniyatlarni sarhisob qilishga undaydi. Shamolning roli qadimiy platolarda va Qashqadaryo konusining g'arbiy qismida qum marzalari va tepaliklarining, ayrim joylarda esa barxanlarning mavjudligida yaqqol namoyon bo'lib, cho'lining katta qismi yassi yoki biroz to'liqinsimon yuzaga ega hisoblanadi.

Iqlimiy jihatdan Qashqadaryo vohasining g'arbda ochiqroq bo'lgan tektonik botiq bo'lishi bilan bevosita bog'liq. Mazkur botiqning g'arb va janubda ochiqligi, shimolda va sharqda esa tog'lar bilan o'ralganligi relyef yuzasining g'arbdan –sharqqa tomon ko'tarilib borishi, balandlik mintaqalanishi yo'nalishida iqlim elementlarini ham kuzatish mumkin. Viloyatda iqlimning shakllanishida geografik o'rni, yuzasining tuzilishi ya'ni relyefi va tog' tizmalarining joylashuvi katta ta'sir ko'rsatgan. Viloyatning cho'l qismida yillik o'rtacha harorat janubda (G'uzor) +16.1°C bo'lib, tog'larga tomon borgan sari pasayib boradi. Ba'zi yillarda iliq qish bo'lishi ham kuzatilib vegetatsiya davri uziksiz davom etishi mumkin. L.N.Babushkin bunday qishlarni "vegetatsiyali" qishlar deb atashni taklif qilgan edi [4]. Iyul oyi mintaqada eng issiq oy hisoblanib, o'rtacha harorat tekislikda +29°C dan oshadi.

O'rta Osiyoning tekislik va tog' oldi hududlarida kuzatishlar asosida olingan ma'lumotlarning tahlili havoning o'rtacha kunlik harorati 5 C dan oshishi qish faslining tugashi va bahorning boshlanishi, aksincha +5° C dan harorat tushishi qishning boshlanishi deb hisoblanadi. Viloyatning iqlim sharoiti yilning katta qismida ifodalinish uchun qulay bo'lgan yaylovlari mavjuddir. I.P.Koloskov (1958 y.), D.I.Shashko (1962 y.) va boshqa olimlar tomonidan tuzilgan agroiklimiy kartalarda ham Qashqadaryo viloyati subtropik mintaqa doirasida belgilashgan. Viloyatning tekislik va tog' oldi hududlarida o'rtacha kunlik haroratlarning +10° C dan o'tishi 17-25-martdan boshlanib 2-12-noyabrgacha davom etadi. Viloyat hududining g'arbiy chekkasi uning eng qurg'oqchil joylaridir. Namlanish gidrotermik koeffitsiyentiga bog'liq holatda Qashqadaryo viloyatining hududi arid (cho'l), semiarid (dasht), semigumid (tog' – o'rmon – dasht) hamda gumid (subalp o'tloqlari) tiplarga mansub hisoblanadi [4,5,6]. Bularning barchasi landshaftlarning balandlik mintaqasidagi tafovutlarini va bog'liq tomonlarini keltirib chiqaradi. Landshaft va iqlim kartalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyoning janubiy katta qismi (bunga Qashqadaryo viloyati hududi ham mansub) subtropik mintaqaga kiritilib, tekislik qismining iqlimi uchun subtropik cho'llar iqlimi xosdir. Qashqadaryo okrugining iqlimida tog'li qismining balandlik zonalarini o'ziga xos spektri mavjud, yani absolyut balandligi 300 m dan 1300 – 1400 m gacha sathlarda joylashgan tog' oldi tekisliklarini, adirlarni va past tog'larni ishg'ol etadi. Bu zona uchun boshloqli har xil o'tli dasht va efemerli cho'l landshaftlari xos.

Qashqadaryo vohasining eng uzun daryosi Qashqadaryo bo'lib, yaqin o'tmishgacha Muborak shahridan shimoli – g'arbda qadar oqib o'tgan, biroq hozirda xo'jalikda daryo suvining iste'mol ko'rsatkichi shunchalik kattaki ilgari hududlargacha yetib bormayapti. S.Sh.Mirzayev (1974) Qashqadaryo havzasi yer osti suvlarining oltita konini ajratib ko'rsatgan. Qashqadaryo viloyati cho'l qismida yer osti suvlarining konlari to'rtlamchi davr yotqizilari orasida minerallashuv darajasi turlicha bo'lgan yer osti suvlarining ancha katta zahiralari uchraydi va foydalanishga yaroqlidir [5:]. Agar tekislikda sayyohlarni qiziqtirish maqsadida infrastruktura shakllaridan qazilgan quduqlar bo'lishi qiziqish ortishiga sabab bo'ladi. Qashqadaryo cho'l zonasida (Mavlonov, Skvorsov) Sirdaryo tsikliga tegishli yuzalarda, allyuvial tekisliklarda avtomorf tuproqlar – cho'l, qum tuproqlari, taqirlar, bo'z – qo'ng'ir tuproqlar keng tarqalgan. Qarshi cho'lining g'arbiy qismida cho'l qum tuproqlari eol, allyuvial, prolyuvial yotqizilarda vujudga kelgan. Mazkur tuproqlarning tabaqalashuvi juda sust kechib, mexanik tarkibi yengil qumoq hamda chirindi miqdorining juda kamligi xosdir. Yoz oylarida yuzaning qalinligi qariyb 5 sm, +70° C gacha qiziydi. Chirindining miqdori yuz qatlamda 0.5% bo'lib pastga tomon kamayib 80 sm chuqurlikda atigi 0.1 % tashkil etadi [6]. Yoz oylarida haroratning bu qadar isishi huddi arab saharlaridagidek taassurot uyg'otishi, arab davlatlarida rivojlangan cho'l rizmining bizning hududimizda ham rivojlantirish mumkinligini isbotlaydi. Masalan birgina Muborakdagi barخانlar yoki rezervatdagi o'rmonzorlarning manzaralari, Mirishkor tumanidagi Sechanko'lining ajoyib tabiiy ko'rinishi ushbu turizm ixlosmandlarini quvontiradi. A.M.Rasulov (1976) ma'lumotlariga ko'ra Qarshi cho'lining g'arbiy tumanlarida Kasbi, Mirishkor, Nishon va Muborak - qadimiy yuzalar Devxona, Setalantepa, Dug'oboy, To'ngizsirt kabi qoldiq qirlarda bo'r va paleogen davrlarining qumtosh va giltosh jinslarida, shuningdek delyuvial va prolyuvial yotqizilarda 175 ming ga maydonda bo'z – qo'ng'ir tuproqlar uchraydi. Mazkur tuproqlarda chirindi miqdori joyiga qarab farqlangan holda kamroq sanaladi. Cho'l mintaqasining efemer va efemeroid o'simliklarining mavsumiylik hususiyati cho'l turizmida ham mavsumiylik asosida kechadi deyishga asoslanishi mumkin, ammo cho'l turizmining o'ziga xos yo'nalish va tomonlari buni inkor etadi. Masalan mashinalar poygasini barخان qumliklar ustida o'tkazish uchun fasllarning ahamiyati katta emas. Qashqadaryo vohasining geografik o'rni O'zbekiston va O'rta Osiyo tabiiy mintaqasini emas, balki Markaziy Osiyo, Sibir, Sharqiy Yevropa, Kavkazorti, Kichik Osiyo, O'rta dengizbo'yi, Eron, Afg'oniston, Hindistonga xos o'simlik va hayvonot turlarining ham tarqalishiga sabab bo'lgan. Viloyat geografik o'ziga xos o'simliklar qoplamiga ega bo'lib cho'l o'ttizdan ortiq oila vakillari keng tarqalgan. O'simliklar qoplamidagi turlarning ko'pchiligi O'rta Osiyo cho'l hududi o'simliklariga juda o'xshash. Cho'l mintaqasida qoqidoshlar oilasining vakillari, hiloldoshlar, sho'radoshlar yagona tur daraxt - qorasaksovu, butalardan teresken va boyalish, chala butalardan sarsazan va sho'ralar, bir yillik o'tlar, burchoqdoshlar, piyozdoshlar savsarguldoshlar, bug'doydoshlar oilasining yigirmadan ortiq turi mavjud bo'lib orasida endemik ro'yxatdagilar ham uchraydi. Endemik turlar va estetik zavq olishda yordamchi funksiyaviy hususiyatini namoyon etuvchi cho'l o'simliklari turistlarni jalb eta oladi. Qashqadaryo viloyatining hayvonot dunyosining tarqalishi quyidagi o'ziga xos ekosistemalarni hosil qiladi: cho'l mintaqasi hayvonlari, adir yoki tog' oldi mintaqasi hayvonlari, tog' o'rmonlari va alp mintaqasining hayvonot olami, suv havzalari va to'qay hayvonlari, voha hayvonlari va b. Cho'l mintaqasi hayvonlari turli o'lkalarning hayvonlari aralashib ketgan zoogeografik rayonlarga mansubdir. Cho'lning faunasi tarkibida O'rta Osiyo, Markaziy Osiyo, Hindiston, O'rta dengiz bo'yi uchun xos bo'lgan turlar mavjud. O'simliklarning siyrakligi, ovqat va suvning taqchilligi tufayli cho'l hayvonlari tez harakatlanish qobiliyatiga ega bo'lsada, yozda kunduzi tuproq 60 -70 gradusgacha qiziganda ularning faoliyati keskin susayadi. Kunduzi inlarda, soya – salqin joylarda jon saqlab, kech kirishi bilan faollashadilar. Bu hol ko'pchilik hashoratlariga, chayonlarga, kaltakesaklarga, ilonlarga, sut emizuvchi ayrim hayvonlarga va ba'zi bir qushlarga xosdir. Ushbu hududlarda hayvonot olamiga bezarar ekologik tartibga solingan ovchilik sayohatini ham olib borish mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida ma'lumotlari keltirib o'tilgan tabiiy landshaft komponentlarining tavsifida turizmida foydalanish samaradorligi innovatsion loyihalar asosida ekologik, ijtimoiy zararsiz xususiyatidan kelib chiqqan holda formulaga solish maqsadiga muvofiq. Shu asnoda Qashqadaryo viloyati cho'l mintaqasidagi tabiiy, tarixiy, rekreatsion va boshqa obyektlardan marshrut xaritasi yaratish eng dolzarb vazifalardan biridir. Turistik ehtiyojni qoplashda raqobatni ham hisobga olinishi lozim, chunki iqtisodiy foyda keltiruvchi sohada albatta sog'lom raqobat muhiti shakllanadi. Geografik joylar jozibadorligini to'la to'kis ochib bera olishda marketing va reklamalarining o'rni bor. Shu bilan bir qatorda iqtisodiy holatga ijobiy ta'sir etuvchi mehnat bozori, barqaror ekologik holat, qulay infratuzilma, resurs imkoniyati kabi omillarning muhimlik darajasi bo'yicha guruhlashtirish ham muhim sanaladi. Turizmning jahonda xizmat ko'rsatish sohasidagi ulushi UNWTO ma'lumotlariga ko'ra o'ttiz foizdan ortiqni tashkil etadi. Xizmat ko'rsatish sohasining rivoji esa mahalliy aholini ish bilan ta'minlanishiga va mehnat bozorida kadrlar zaruratini, ehtiyojini keltirib chiqaradi. Turistik resurslardan foydalanishda turistlar uchun tabiiy geografik hudud haqidagi ma'lumotlarni qiziqarli tarzda oldindan media va boshqa usullar orqali yetkazish, agar cho'l hududida mahalliy aholi yashasa ularni maxsus yordamchilar sifatida jalb qilish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Usmanov M.R., Suyarova N.A., Normatov S.A. Cho'l turizmini tashkil etishning geografik xususiyatlari (Qashqadaryo viloyati misolida) // FarDU ilmiy xabarlari №2 -Farg'ona, 2025. 257-263 b.
2. Хасанов И.Х. Оценка природных территориальных комплексов Каршинской степи для оросительной мелиорации. – Т., 1981.
3. Бабашкина А.М. Государственное регулирование национальной экономики/ А.М.Бабашкина. – М.: Финансы и статистика, 2007. – С. 12
4. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А. Физико-географическое районирование Узбекской ССР/ под ред. В.Л.Шульца // Вопросы географического районирования Средней Азии и Узбекистана. – Ташкент: Изд-во Ташкентского государственного университета, 1964. – Выпуск 231. – С. 180:225
5. Мирзаев С.Ш. Формирование и размещение запасов подземных вод Узбекистана [Вопросы методики их изучения и проблемы хозяйственного использования], Т., 1974;
6. Нишоннов С.А. Ландшафты Кашкадарьинской долины и их сельскохозяйственное использование. // Ландшафты Узбекистана. – Т., 1966
7. Суярова Н.А. Вопросы развития сферы туризма в Узбекистане // Экономика и социум №4(131) 2025. -С 1162
8. <https://wtcc.org/>
9. <https://www.cognitivemarketresearch.com/desert-tourism-market-report>
10. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)